

INSONIY EMOTSIYALAR

Yusufboyeva Sohiba Alisher qizi

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
sohiba2007@icloud.com**

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedra o'qituvchisi
Ilmiy rahbar: olimjonozaodqulov30@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17828916>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada insoniy va hayvoniy emotsiyalarning psixologik tabiatini, ularning umumiy va farqli jihatlarini, fiziologik asoslari hamda evolyutsion mexanizmlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Hayvon va inson emotsiyalarini taqqoslash orqali emotsional ong darajasi, ijtimoiy o'zaro munosabatlar va kommunikativ funksiyalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: emotsiya, affekt, his-tuyg'u, instinkt, hayvon psixologiyasi, nevrologik reaksiya, adaptatsiya, ijtimoiy emotsiyalar, bazaviy emotsiyalar.

Annotation: This article analyzes the psychological nature of human and animal emotions, their similarities and differences, physiological foundations, and evolutionary mechanisms based on scientific sources. By comparing animal and human emotions, the study highlights the level of emotional awareness, social interactions, and communicative functions.

Keywords: emotion, affect, feeling, instinct, animal psychology, neurological reaction, adaptation, social emotions, basic emotions.

KIRISH

Inson va hayvonlarning emotsional jarayonlari psixologiya fanining eng muhim va ilmiy jihatdan dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Emotsiya bu tirik organizmning tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalovchi murakkab psixik holat bo'lib, u fiziologik o'zgarishlar, ruhiy kechinmalar, xulq-atvor va ijtimoiy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Insonning emotsional olami nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ijtimoiy tajribaga tayanadi, hayvonlarda esa emotsiyalar asosan biologik ehtiyojlar, instinktiv reaksiyalar va moslashuv mexanizmlarida namoyon bo'ladi [1, 58-b.].

O'zbekistonlik psixolog olimlardan B. Ziyomuhammadov, S. Karimova, A. Jalolov, M. Qodirova va Q. Jo'rayevlarning ilmiy tadqiqotlarida emotsiyalarning anatomik-fiziologik asoslari, ularning kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi, shuningdek, shaxsning xulq-atvorini boshqarishdagi o'rni keng yoritilgan. Masalan, B. Ziyomuhammadov emotsiyani insonning psixik jarayonlarini faollashtiruvchi kuch deb baholaydi [1, 112-b.]. S. Karimova esa emotsiyalarni ijtimoiy tajribaga tayanadigan psixik mexanizm sifatida talqin qilib, ularning shaxs taraqqiyotidagi rolini alohida ta'kidlaydi [2, 41-b.]. Hayvonlardagi emotsional jarayonlar insonnikiga nisbatan sodda bo'lib, ular qo'rquv, agressiya, qoniqish, g'azab, og'riqni his etish kabi bazaviy reaksiyalarni aks ettiradi. A. Jabborovning hayvon psixologiyasiga oid tadqiqotlariga ko'ra, hayvonlarning emotsional xatti-harakatlari asosan instinktiv ehtiyojlarni qondirishga va omon qolishga yo'naltirilgan [3, 81-b.]. Shu bois hayvonlarda emotsiyalar biologik moslashuv vositasi sifatida namoyon bo'lsa, insonda ular ijtimoiy ong, nutq, madaniyat va qadriyatlar bilan uyg'unlashgan murakkab psixik tizimni tashkil etadi.

So'nggi yillarda emotsional ong, ijtimoiy emotsiyalar, kommunikativ mimika va affektiv jarayonlarning funksional mexanizmlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar emotsiyalarning inson hayotidagi o'rnini yanada kengroq talqin qilish imkonini bermoqda. Inson emotsiyalari tafakkur, xotira, motivatsiya, irodaviy harakatlar, shaxslararo munosabatlar va muloqotda yetakchi rol o'ynaydi. Hayvonlarda esa emotsiyalarning vazifasi asosan himoyalash, xavfga javob qaytarish, hududni himoya qilish, juft tanlash kabi biologik jarayonlar bilan cheklangan [3; 4]. Shu sababli insoniy va hayvoniy emotsiyalarni taqqoslab o'rganish emotsional jarayonlarning mohiyatini, ularning fiziologik va kognitiv asoslarini, shuningdek evolyutsion ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Emotsiya bu organizmning tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalovchi murakkab psixik holat bo'lib, u fiziologik, kognitiv va ijtimoiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O'zbekistonlik olim B. Ziyomuhammadov emotsiyani "psixik jarayonlar dinamikasini faollashtiruvchi ichki kuch" sifatida baholaydi [1, 58-b.]. Unga ko'ra, emotsionallik insonning barcha psixik faoliyatida, ya'ni idrok, xotira, tafakkur va nutqda o'z aksini topadi. A. Jalolov emotsiyalarni bosh miya po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalarining o'zaro integratsiyalashgan faoliyati natijasi sifatida ko'rsatadi [2, 92-b.]. Shu bois emotsiyalar shunchaki his-tuyg'u emas, balki organizmning murakkab neyrofiziologik reaksiyalari hisoblanadi.

Inson emotsiyalarida ikki asosiy komponent farqlanadi:

1. Subyektiv (ichki) kechinmalar - shaxsning ichki hissiy tajribasi;
2. Obyektiv (tashqi) ifodalar - mimika, imo-ishora, ohang, qaddi-qomat o'zgarishlari.

Bu ikki qatlamning uyg'unligi emotsiyaning to'liq namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Inson emotsiyalarining eng asosiy xususiyati - ijtimoiylashgan bo'lishidir, inson emotsiyalari shaxsning ijtimoiy tajribasi, tarbiyasi, madaniyati, qadriyatlar va kommunikativ muhit ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun odamning quvonchi, qayg'usi, uyati, vijdon azobi, empatiyasi kabi murakkab emotsiyalar hayvonlarda mavjud bo'lmaydi. Insonning emotsional tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ijtimoiy ongga tayanishi - inson o'z hissiyotlarini boshqarishi, yashirishi yoki ongli tarzda ifodalashi mumkin. Masalan, vaziyatga mos ravishda jilmayish, o'zini tuta bilish, o'z hissiyotini nazorat qilish - bu insonning ijtimoiylashgan emotsional faoliyati natijasidir.

2. Kognitiv jarayonlar bilan integratsiya - Qodirovaning fikricha, tafakkur, xotira, e'tiqodlar va qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar emotsiyalarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi [4, 115-b.].

3. Murakkab emotsiyalar mavjudligi - insonda quyidagi murakkab emotsiyalar mavjud: vijdon azobi, g'urur, empatiya, uyat, estetik zavq, qadriyatga asoslangan hissiyotlar. Bu emotsiyalarning shakllanishi ijtimoiy ong va madaniyat bilan bog'liqdir.

A. Jabborovning hayvon psixologiyasiga oid tadqiqotlariga ko'ra, hayvonlarda emotsiyalar asosan biologik instinktlar va moslashuv xususiyatlariga tayanadi [5, 81-b.]. Hayvonlar qo'rquv, agressiya, qoniqish, xavotir kabi asosiy hissiy reaksiyalarni namoyon qiladi. Hayvoniy emotsiyalarning asosiy xususiyatlari:

1. Instinktga asoslangan - tashqi rag'batga avtomatik javob;
2. Biologik moslashuvga xizmat qiladi - himoyalash, hujum, juft tanlash;
3. Kognitiv jarayonlar cheklangan - emotsiya ongli nazoratga bo'ysunmaydi;
4. Murakkab ijtimoiy emotsiyalar mavjud emas - vijdon azobi, uyat, estetik hissiyotlar.

Hayvonlarda muloqot mimika, tovushlar, tana harakatlari orqali sodda darajada kechadi. Insondagi kabi ma'naviy mazmun shakllanmaydi. Inson va hayvon emotsiyalarining o'xshash va farqli jihatlari: har ikkisi limbik tizim orqali boshqariladi; Bazaviy emotsiyalar mavjud: qo'rquv, tajovuz, quvonch, nafrat; Emotsiyalar moslashuv (adaptatsiya) vazifasini bajaradi. Inson va hayvon emotsiyalarining farqli jihatlari:

Asosiy ko'rsatkich	Inson	Hayvon
Ongli boshqaruv	Bor	Yo'q
Murakkab emotsiyalar	Bor (uyat, vijdon, empatiya)	Yo'q
Til orqali ifoda	Juda rivojlangan	Cheklangan
Madaniyat ta'siri	Kuchli	Yo'q
Kognitiv jarayonlar	Rivojlangan	Cheklangan

Demak, inson emotsiyalari ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida murakkab tizim bo'lsa, hayvonlardagi emotsiyalar biologik moslashuvning bir ko'rinishidir. Psixologlar fikricha, emotsiyalar tirik mavjudotlarning biologik evolyutsiyasi davomida shakllanib, insonda ijtimoiy ongning rivojlanishi bilan murakkablashgan. Emotsiyalar: xavfdan himoyalaniish, ozuqa topish, ko'payish, ijtimoiy guruhda moslashuv uchun hayvonlarda, butun ijtimoiy hayotni boshqarish, o'zini idora qilish, shaxslararo munosabatlar uchun esa insonlarda shakllangan. Inson emotsiyalarining murakkablik darajasi uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi.

XULOSA.

Insoniy va hayvoniy emotsiyalarni taqqoslab o'rganish psixologiya fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, emotsional jarayonlarning kelib chiqishi, funksiyasi va mazmuni haqida chuqur ilmiy tasavvur shakllantirishga imkon beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson va hayvonlarda emotsiyalar umumiy fiziologik asosga ega bo'lsa-da, ularning psixologik mazmuni, namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy ahamiyati tubdan farq qiladi. Hayvonlarda emotsiyalar instinktiv va avtomatik xususiyatga ega bo'lib, ular asosan biologik ehtiyojlarni qondirish, xavfsizlikni ta'minlash, himoyalaniish va moslashuvga xizmat qiladi. Umuman olganda, insoniy emotsiyalar ijtimoiy mavjudot sifatidagi shaxsning ruhiy rivojlanishida, shaxslararo munosabatlarda, kommunikativ jarayonlarda, ijtimoiy moslashuvda va ma'naviy-axloqiy shakllanishda yetakchi o'rin tutadi. Hayvoniy emotsiyalar esa tiriklikning biologik omon qolish mexanizmlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, emotsiyalarni psixologik, fiziologik va evolyutsion nuqtayi nazardan kompleks o'rganish inson psixikasining chuqur mexanizmlarini anglashga xizmat qiladi hamda psixologiya fanidagi nazariy va amaliy izlanishlarning ilmiy asoslarini kengaytiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ziyomuhhammadov B. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Fan, 2019. - 250 b.
2. Jalolov A. Psixologiya: umumiy kurs. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 320 b.
3. Karimova S. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2018.- 180 b.
4. Qodirova M. Inson psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 210 b.
5. Jabborov A. Hayvonlar psixologiyasi asoslari. - Toshkent: Sharq, 2016. - 140 b.
6. Jo'rayev Q. Shaxs psixologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2022.- 260 b.